

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARIDA  
EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

*Razoqova Hosilaoy Anvarovna*

*Navoiy davlat pedagogika instituti*

*Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim)*

*1-kurs magistranti*

**Anotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishning turli usul va vositalari, tabiat bilan tanishtirish jarayonida pedagog xodimlarga qo'yiladigan talablar, axoqiy, aqliy va estetik tarbiyaning ekologiya bilan bog'liqligi

**Kalit so'zlar.** Ekologiya, ekologik madaniyat, axloq, estetik tarbiya.

ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У УЧАЩИХСЯ  
ДОШКОЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ

Разокова Хосила Анваровна

Навоийский государственный педагогический институт

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены различные методы и средства формирования экологической культуры у детей в организациях дошкольного образования к педагогам в процессе приобщения к природе, связь нравственно-эстетического воспитания с природой

**Ключевые слова:** экология, экологическая культура, этика, эстетическое воспитание.

FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG STUDENTS OF PRE-  
SCHOOL EDUCATION ORGANIZATION

Razokova Khosilaoy Anvarovna

Navoi State Pedagogical Institute

**Anotation.** In this article, various methods and means of forming ecological culture in children in preschool education organizations, requirements for pedagogues in the process of introduction to nature, the connection of moral and aesthetic education with nature

**Key words:** ecology, ecological culture, ethics, aesthetic education.

Hozirgi ilmiy texnika taraqqiyoti davrida insonning tabiatga ta'siri kuchaygan bir paytda undagi ekologik muvozanatni asrash nihoyatda muhim muammolardan biri hisoblanadi. Shuni ham kelajak avlodni ekologik jihatdan savodli va yetuk insonlar qilib tarbiyalash, bu borada yoshlar ongida ekologik tushunchalarni shakllantirish hozirgi kunning dolzarb muammolari qatoridan o'rin egallaydi.

Demak, tabiatni muhofaza qilish, ekologik talablarga har doim rioya qilish va ekologik halokatlarning oldini olish mustaqil davlatimizning sotsial-iqtisodiy, huquqiy masalalarigina bo'lib qolmay, balki ekologik siyosatning asosiga aylanishi mumkin.

Chunki ushbu muammoning ortida butun mustaqil davlatimiz, millatning taqdiri yotibdi. O'zbekiston Respublikasi 1-Prezidenti I.A.Karimov "Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal qilish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ana shu muammolarning hal qilinishiga bog'liqdir" deb, "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida ta'kidlagan [1]. Tabiatning ekologik holatining buzulishi – tuproq, suv, havoning zararli moddalar bilan ifloslanishi, zararlanishi, o'simlik va hayvonlar turlarining kamayib borishi, tabiiy landshaftlarning tez o'zgarishi, yangi qishloq va shaharlarning paydo bo'lishi, aholi sonining ko'payishi insonning yashash muhitini tubdan o'zgarishiga sabab bo'lmoqda.

Respublikamizda tabiatni muhofaza qilish va ekologik muvozanatni saqlash, yer, suv, yer usti boyliklari – o'rmon, havo, o'simlik, va hayvonot dunyosi, shifobaxsh o'simliklardan foydalanish va muhofaza qilishda jiddiy kamchiliklar mavjud. Ekologik kulfatlar chegara bilmasligini nazarda tutgan holda jahon jamoatchiligi e'tiborini mintaqaning ekologik muammolariga qaratish lozim. Orol muammosi bugungi kundachinakkam keng ko'lamli, butun sayyoramizga daxldor bo'lib qolganligini, uning ta'siri hozirning o'zidayoq, biologik muvozanatni buzayotganligi, bepoyon hududlarda aholining genofondiga halokatli ta'sir ko'rsatayotganini nazarda tutish lozim.

Shuni aytish lozimki, XXI asrda xalqimizning oldida turgan muammolardan eng dolzarbi aholi istiqomat qilayotgan mintaqalarni, ularni o'rab olgan atrof-muhitni tezroq sog'lomlashtirish, tabiiy resurslardan tejamkorlik va oqilona foydalanishga e'ibor qaratmoq lozim.

Mamlakatimiz o'quv yurtlarida, jumladan eng birinchi poydevori bo'lmish maktabgacha ta'limdan boshlab mintaqamizda va butun dunyoda kechayotgan hamda sodir bo'layotgan ekologik holatlarni birinchi navbatda tabiat qonunlari, uning ekologik muvozanatlarini, o'z vatanidagi o'simlik va hayvonoy dunyosining holatini, atrof-muhit tozaligini, ular o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarni chuquqr bilishlari lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish orqali estetik, aqliy, axloqiy jihatdan tarbiyalash, jismoniy rivojlantirish barcha zamonlarda ham o'ta

dolzarb muammolardan biri hisoblangan [2]. Tabiatni asrab-avaylash ardoqlash insonning burchi ekanligi haqidagi ta'limotlar Turoni Turkistondan yetishib chiqqan buyuk olimlarning ta'limotlarida o'z ifodasini topgan. Allomalar o'z davrida tabiatdan foydalanish, ular bilan bog'liq bo'lgan voqea, hodisalar haqida boy ma'lumotlarni yozib qoldirganlar. Tabiatga mehr, yuksak axloq-odobini tarbiyalash lozimligini o'z asarlarida bayon etganlar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni ekologik tarbiyalash atrof-muhitga, jonli va jonsiz tabiat obektlariga malakali, ehtoyotkorona munosabatda bo'lishga yordam beradi. Tabiiy jarayonlarga e'tibor, atrof-muhit qonunlarini tushunish, maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiyatini shakllantirishning asosi bo'lib, uning atrofdagi dunyoga ma'suliyatli munosabatda bo'lish muhumligini tushunadigan to'laqonli fuqaro sifatida o'sishiga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim konsepsiyasiga ko'ra bolalarni tabiat bilan tanishtirish jaratonida o'zaro bir-biriga bog'liq ta'limiy-tarbiyaviy vazifalar amalga oshiriladi. Aqliy tarbiyadagi asosiy vazifa-bolalarda notirik tabiat, o'simliklar va hayvonlar haqida ma'lumot berish, ularning tabiat voqea hodisalarini yetarlicha idrok eta olishlariga imkon berash. Aqliy tarbiyaning ajralmas qismi-sensor madaniyatdir. U analizatorlarni takomillashtirish, bolalarda keying umumlashmalar uchun asos bo'ladigan hissiy tajribani mustahkamlash, tabiatshunoslikka oid dastlabki tushunchalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Bolalarning tabiat haqidagi bilimlarni egallashlari ularning bilish qobiliyatlari-sensor apparati, mantiqiy fikrlashi, diqqat, nutq, kuzatuvchanlik, bilishga qiziqishi kabilar bilan mustahkam bog'langan bo'lishi kerak. Fikrlashni rivojlantirish va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun bolalarning tabiat narsa-hodisalari bilan tanishtirish, ularni kuzatilayotgan narsa-hodisalarni tushunishga o'rgatish va ular orasidagi aloqa va munosabatlarni anglashlariga olib kelish kerak. Anglash jarayonidagi tabiat hodisalari orasidagi sababiy aloqalar va munosabatlar fikrlashni rivojlantiradi.

Bila o'zini o'rab turgan atrof-muhit va tabiatning muayyan xossalarini: havoning issiq-sovuqligini terisi bilan, suyuqliklarning ta'mini tili bilan , havodagi hidni burni bilan, tabiatdagi xilma-xil obektlarning rangini ko'zi bilan, tovushlarni qulog'i bilan sezib, ya'ni mazkur xossalar boalaning sezgilariga ta'sir etib bolada umumiy borliq haqida tushunchalar paydo bo'la boshlaydi.

Bolalarda bilishga qiziqishini tarbiyalash ham muhumdir. Bolalarga hayvonlar va o'simliklarni qanday kuzatishni ko'rsatish, ularning diqqatini, tashqi ko'rinishini, harakatiga qaratish orqali tarbiyachi ularda nafaqat tabiat haqida bilimlarni, balki ularga ma'suliyatli munosabatni shakllantiradi. Faqatgina har doim bolaning yoshini hisobga olish va uning diqqatini mazkur narsa va hodisadagi nimaga qaratishni bilish

zarur. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida axloqiy, jismoniy; mehnat va estetik tarbiyani amalga oshirish zarur

Bolaning axloqiy rivojlanishida unda Ona tabiatga muhabbat va tiriklikka ehtiyotkorona munosabatda bo'lish asosiy o'rin tutadi. Bolalarga bu borada eng yaqin yo'l ular o'sib ulg'ayyotgan joydir. Maktabgacha ta'lim muassasasida hayvon va o'simliklar mavjud bo'lsa, bolalar ularni kuzatadi va boqadi, tarbiyachiga yordamlashadi. Natijada ularda tabiatga ehtiyotkorona munosabat, mehnatni sevish va mehnat qilishga odatlanish, topshirilgan ishga ma'suliyat o'z-o'zidan shakllanadi.

Tabiat bolalarni estetik tarbiyalashning asosiy vositalaridan biridir. Tabiatning go'zalligi hatto eng kichik bolalarni ham o'ziga rom qilmasdan qolmaydi. Ularni tabiatni bilish jarayonida e'tiborlarini o'rmonning shovqinlari, qushlarning sayrashi, barglarining shakli va rangi, gullarning hidlari, hayvonlarning hayvonlarning harakatlariga qaratish kerak. Buning muhim jihati bola kelajakda o'z hayotida barcha xilma-xil go'zalliklarni idrok eta olishga sharoit yaratishdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilardan boalarni tabiat bilan tanishtirish uchun tabiat haqidagi turli fan sohalaridagi kata bilim zahiralari ega bo'lishlari, ularning rivojlanish qonuniyatlarini tushunishlari, aql sohasi (noosfera)ning imkoniyatlarini to'g'ri baholay olishlari, tabiatda yua beradigan narsa-hodisalar orasidagi aloqadorlikni izohlay olishlari talab etiladi. Ayniqsa, o'zi yashab turgan joy tabiati: fasl almashinuvlarini kuzata olishlari, tabiat kalendari tuza olishlari, o'simlik va gullarni ko'paytirish ko'nikmasini bilishlari lozim [2].

Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berish jarayonida, ularda:

1.jonli va jonsiz tabiat haqida va ularning o'zaro aloqadorliklari haqida ko'nikmalarni paydo bo'lishi;

2.Tabiat berayotgan ne'matlardan oqilona foydalanish, atrof-muhitga shikast yetkazmaslik

3 Tabiat boyliklarini ko'paytirishga yo'naltirilgan insoning mehnat faoliyati bilan tanishtirish.

4.Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiatdagi o'zgarishlarni kuzatishga doir xulq-atvor ko'nikma va malakalari bilan qurollantirish.

5.Ularda ekologik madaniyatni shakllantirish hamda ona tabiatga muhabbatni tarbiyalash.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov.I.A "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari"
2. Ibrohimov.Sh, Fatxullayeva. M " Maktabgacha yoshidagi bolalarni tabiat bilan tamishtirish"
3. Sulstonov.P.S, "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asosolari, "Musiqqa" nashriyoti. Toshkent-2007
4. Muftaydinov.Q.X, Qodirov.H.M "Ekologiya". Toshkent-2020